

METABOLIK O'ZGARISHDA BACHADONNING PATOMORFOLOGIYASI

Saidmurodova Gulhayo Ilxom qizi tayanch doktorant

gulhayosaidmurodova047@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent, O'zbekiston

Dolzarbli: Bugungi kunda metabolizm zamonaviy fundamental va klinik tibbiyotning dolzarb muammolaridan bo'lib kelmoqda. Metabolik sindromda uglevod va lipidlar almashinuvining buzilishi, insulinga rezistentlik va qon tomirlar devorida endoteliyning disfunksiyasi organizmdagi a'zo va tizimlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda reproduktiv kasalliklarning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bo'lgan reproduktiv yoshdagi ayollarda metabolik sindrom uchrashi ortib bormoqda, shu sababli biz tajribaviy metabolik sindromda bachadonning patomorfologiyasini o'rgandik.

Tadqiqotning maqsadi: Tajribaviy metabolik buzilishda bachadondagi patomorfologik o'zgarishlarni o'rganish.

Tadqiqotning material va usullari: O'rganish materiali sifatida og'irligi 180-200 gramm bo'lgan yetilgan oq urg'ochi laborator kalamushlardan foydalanildi. Tajriba uchun olingan oq kalamushlar, 2 ta guruhga ajratildi. Har bir guruhda 20 tadan kalamush tashkil qildi. Birinchi guruh nazorat guruhi bo'lib, somatik va infeksiyon kasalliklarning klinik belgilari kuzatilmagan kalamushlar olindi. Nazorat guruhidagi kalamushlarga doimiy ravishda ovqat va suv berildi. Ikkinchi guruhimizga tajribaviy metabolik sindrom modeli chaqirildi. Kalamushlarning ovqat ratsionini 60% laboratoriya yemi, 20% qo'y yog'i, 20% fruktoza tashkil qildi. Ichimlik suvini o'rniga fruktozaning 20% li eritmasi berildi. Tajribadan 30, 60 va 90 kun o'tib kalamushlar jonsizlantirildi. Morfologik tadqiqot uchun bachadonlar olinib, qalinligi 8-10 mikron bo'lgan rotorli mikrotomda tayyorlangan gistologik kesmalar gematoksilin eozin, Van gizon usullarida bo'yaldi.

Tadqiqot natijalari: Metabolik sindromda kalamushlarning bachadonida bo'ladigan patomorfologik o'zgarishlar ko'rib chiqilganda nazorat guruhidagidan biroz o'zgarishlar kuzatildi. Metabolik sindrom holatidagi bo'lgan 30 kunlik kalamushlarning tana vazni 240-280 gr o'rtacha vazni $264 \pm 1,32$ gr, bachadonning vazni 0,5-0,65 gr bo'lib o'rtacha $0,58 \pm 0,05$ grni tashkil etib tana vaznining $0,22 \pm 0,03$ % ga teng. Metabolik sindrom holatida kalamushlar bachadonining mikroskopik tuzulishida turli o'zgarishlar kuzatilishi normal holatidan biroz farq kuzatilgan, xususan funksional ya'ni epitelial qavat hujayralarida gipotrofiya kuzatilgan shilliq osti qavati biroz qalinlashganligi (shilliq osti qavati 2-4 nm qalinlikda), miometriy qavatida mushak hujayralarning gipertrofiyasi va orasida stromaning normal holatga nisbatan 110-115 % ortishi kuzatildi. Metabolik sindrom holatida bo'lgan 60 kunlik kalamushlarning tana vazni 290-330 gr o'rtacha vazni $315 \pm 2,5$ gr, bachadonning vazni 0,4-0,6 gr bo'lib o'rtacha $0,58 \pm 0,05$ grni tashkil etib tana vaznining $0,180 \pm 0,04$ % ga teng. Epitelial qavatning hujayralarida gipotrofiya kuzatildi, shilliq osti qavati 4-6 mkm qalinlashdi. Miometriy bo'yicha natijalar: miometriyning umumiy maydoni: 23,4 mkm². Miometriy va endometriy nisbati: 1,69 va umumiy maydonga nisbatan 120-125 % ortishi kuzatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, metabolik jarayonda bezli epiteliy va mushak elementlari gipotrofiyalanadi sifat va son jihatdan kamayadi. Metabolik sindrom holatida bo'lgan 90 kunlik kalamushlarning tana vazni 300-350 gr o'rtacha vazni $320 \pm 3,0$ gr, bachadonning vazni 0,38-0,62 gr bo'lib o'rtacha $0,55 \pm 0,05$ grni tashkil etib tana vaznining $0,172 \pm 0,0167$ % ga teng. Funksional ya'ni epitelial qavatining hujayralarida gipotrofiya kuzatilgan shilliq osti qavati 6-8 mkm qalinlashdi. Miometriyning umumiy maydoni: 22,6 mkm². Miometriy va endometriy nisbati: 1,71 va umumiy maydonga nisbatan 110-115 % ortishi kuzatildi.

Xulosa. Metabolik sindromda bachadonning epitelial qavat hujayralarida gipotrofiya, shilliq osti qavati biroz qalinlashishi, miometriy qavatida mushak hujayralarning gipertrofiyasi va orasida stromaning ortishi, endometriyda bezli epiteliy gipotrofiyasi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чазова И.Е. Метаболический синдром / И.Е.Чазова, В.Б.Мычка // Кардиоваскулярная терапия и профилактика. - 2003. - № 3. - С. 32-38
2. Prevention and management of the global epidemic of obesity /Report of the WHO. Consultation on Obesity//Geneva.- WHO. - 1997
3. Alberti K.G. The IDF Epidemiology Task Torch Consensus Group: The metabolic syndrome; a New Worldwide Definition/ K.G. Alberti, P. Zimmet, J. Shaw// Lancet.-2005.-V.366.-P.1059-1062
4. Метаболический синдром у женщин /Н.А. Беляков, Г.Б. Сеидова, С.Ю. Чубриева, Н.В. Глухов // СПб: Издательский дом СПбМАПО.- 2005.- 439 с.
5. Чубриева С.Ю. Метаболический синдром у женщин репродуктивного возраста, автореф.дис...канд. мед. наук / С.Ю.Чубриева //С-Пб.-2009.- 45 с.
6. Шевченко О.П. Метаболический синдром / О.П. Шевченко, Е.А. Правскурничий, А.О. Шевченко // М: Реафарм. - 2004.- 141 с.
7. Ройтберг Г.Е. Метаболический синдром /Г.Е.Ройтберг // М: МЕД пресс-информ. - 2007.- 223 с.

